

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
NAVOIY BO‘LIMI**

AXMEDOV SHOVDULLO SHUXRATOVICH

**JANUBIY O‘ZBEKISTON PALEOGEN YOTQIZIQLARI GEOLOGIYASI,
LITOLOGIK-FATSIAL HOSIL BO‘LISH SHAROITLARI VA ULAR
BILAN BOG‘LIQ QAZILMA BOYLIKLAR**

04.00.01 – Umumiy va mintaqaviy geologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Geologiya-mineralogiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по геолого-минералогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geological sciences**

Axmedov Shovdullo Shuxratovich

Janubiy O‘zbekiston paleogen yotqiziq-lari geologiyasi, litologik-fatsial hosil bo‘lish sharoitlari va ular bilan bog‘liq qazilma boyliklar.....3

Ахмедов Шовдулло Шухратович

Геология, литолого-фациальные условия формирования палеогеновых отложений Южного Узбекистана и их связь с полезными ископаемыми.....21

Axmedov Shovdullo Shuxratovich

Geology, lithologic-facial conditions for the formation of Paleogene deposits of Southern Uzbekistan and their connection with minerals.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**H.M.ABDULLAYEV NOMIDAGI GEOLOGIYA VA GEOFIZIKA
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
NAVOIY BO‘LIMI**

AXMEDOV SHOVDULLO SHUXRATOVICH

**JANUBIY O‘ZBEKISTON PALEOGEN YOTQIZIQLARI GEOLOGIYASI,
LITOLOGIK-FATSIAL HOSIL BO‘LISH SHAROITLARI VA ULAR
BILAN BOG‘LIQ QAZILMA BOYLIKLAR**

04.00.01 – Umumiy va mintaqaviy geologiya

**GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

Falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/GM201 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida www.ingeo.uz va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mirzayev Abdurazak Umirzakovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Razikov Odil Taxirdjanovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Shoymurotov Tuychi Xalikulovich
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

“Regionalgeologiya” DM

Dissertatsiya himoyasi H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti huzuridagi DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 Ilmiy kengashning 2024-yil «24» dekabr soat 10⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel.: (99871) 209-11-32 (5505), E-XAT: ingeo@exat.uz, E-mail: ingeo@ingeo.uz)

Dissertatsiya bilan H.M.Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (22-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent shahri, Olimlar ko'chasi, 64g. Tel: (99871) 209-11-32 (5505).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «6» dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil «6» dekabrda 22-raqamli reyestr bayonnomasi)



X.D.Ishbayev

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, g.-m.f.d., professor.

E.M.Amirov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.-m.f.f.d.(PhD)

P.S.Sultonov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, g.-m.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida so‘ngi yillarda geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, noma’dan foydali qazilma konlarini qidirish va baholash maqsadida alohida hududlardagi cho‘kindi jinslarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda noma’dan foydali qazilmalarni qidirishning zamonaviy usullarini joriy etish hisobiga mineral-xomashyo bazasining barqaror oshirilishini ta’minlashga qaratilgan foydali qazilmalarning genetik turlarini aniqlash bir qator muammolarni hal qilishda muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Jahon miqyosida bugungi kunda cho‘kindi hosil bo‘lish bilan bog‘liq noma’dan foydali qazilma konlarining litologik-fatsial sharoitlarini o‘rganish bo‘yicha bir qator maqsadli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, turli xil fatsial komplekslar kesimida cho‘kindi hosilalarning litologik-fatsial xususiyatlarini va ularning moddiy tarkibini aniqlash, noma’dan konlar tarkibiga kiruvchi agromineral xomashyolar, qurilish materiallari va yonuvchi foydali qazilma konlarini o‘rganish orqali bashoratlashning ilmiy asoslangan mezonlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizning mineral-xomashyo bazasini boyitish uchun noma’dan foydali qazilmalarni o‘zlashtirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Janubiy O‘zbekiston hududida litologik, fatsial-paleogeografik usullardan foydalangan holda paleogen yotqiziqlarining moddiy tarkibini o‘rganish va aniqlash bo‘yicha muayyan ilmiy natijalarga erishildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Sohani yanada rivojlantirish, takomillashtirish, jadallashtirish”¹ bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ayniqsa bu boradagi ishlar, O‘zbekistonning janubidagi paleogen davri yotqiziqlarining hosil bo‘lish sharoitlarini aniqlash va o‘rganishning zamonaviy usullari asosida qidiruv mezonlarini ishlab chiqib amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-martdagi “Davlat geologiya va mineral resurslar qo‘mitasi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3578-sonli qarorida belgilangan vazifalarni, 2019-yil 23-iyuldagi PQ-4401-sonli “Yer qobig‘ini geologik jihatdan o‘rganishni yanada takomillashtirish hamda 2020-2021-yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va ko‘paytirish Davlat dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi “Geologiya-qidiruv ishlari hajmini tubdan oshirish, xususiy investorlar va ilg‘or xorijiy kompaniyalarni keng jalb etish to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2022-yil 15-martdagi 04-593-son buyrug‘ining 1 bandi; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-martdagi Geologiya fanlari Universitetida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonnomasi, O‘zbekiston Respublikasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

Prezidentining Oliy Majlisga murojaati hamda ushbu sohada qabul qilingan boshqa huquqiy hujjatlarga mos keladigan vazifalarni bajarishga mazkur dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VIII. “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)” ustivor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilish darajasi. Janubiy O‘zbekistondagi paleogen yotqiziqlarining geologik tuzilishi va tog‘ jinslari N.P.Tuayev, S.M.Kiselev, N.P.Xeraskov, M.P.Baskakov, G.M.Chistilin, I.Ya.Ilyashenko, N.P.Petrov, K.A.Sotiriadi, I.X.Xamrabayev, O.M.Borisov, A.M.Akramxodjayev, A.G.Babayev, G.K.Mazanenko, V.P.Polyakov, M.E.Egamberdiyev, M.K.Turapov, B.B.Sitdikov, A.U.Mirzayev, G.S.Abdullayev, A.A.Abidov, S.T.Talipov, T.T.Tadjiyev, R.U.Kalomazov, I.A.Fuzailov, R.X.Mirkamolov, A.A.Abdusamatov, A.R.Kushakov, N.T.Xodjayev, A.M.Ergeshev, Yu.G.Pedder, T.X.Shoymurotov, P.S.Sultonov, T.P.Pirnazarov, S.I.Musayev va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida bayon etilgan.

Paleogen yotqiziqlarining stratigrafiyasi, tektonikasi, paleogeografiyasi va geologik rivojlanish tarixiga aniqlik kiritilishi hamda neft, gaz, selestin, bentonitli gillar, devorbop toshlar kabi bir qator foydali qazilma konlarining ochilishi, shuningdek, fosforitlar, yonuvchi slanetslar, kvarqli qumlar, tabiiy bitum, dolomitlar va gipslar namoyonlarini aniqlanishi bilan eng muhim natijalarga erishildi.

Mavjud ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Janubiy O‘zbekiston paleogen yotqiziqlarining tuzilish xususiyatlari, litologiyasi, cho‘kindi hosil bo‘lishining fatsial sharoitlari va kesimlarni mintaqaviy taqqoslash yetarlicha o‘rganilmagan. Shuningdek, geologik tadqiqotlar umumiy majmuasida tog‘ jinslarining petrografik xususiyati va mineralogik assotsiatsiyalari, foydali qazilmalarning tarqalish qonuniyatini va ularning stratigrafik joylashganligini aniqlash hamda noma‘dan foydali qazilmalar uchun istiqbolli maydonlarni ajratish kabi bir qator hal etilmagan muammolarni yechish talab etiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqot ishlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining: 161/14-sonli “Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash uchun ikkilamchi mahsulot va mahalliy materiallar asosida iqtisodiy samarador polimer kompazitsion materiallar yaratish” (2021-2022) va 002/23-sonli “Ishlab chiqarish sanoati korxonalarini uchun keng qo‘llaniladigan (mikrokalsit) maydalangan marmar kukunini innovatsion usulida ishlab chiqish” (2023-2024) mavzulari ilmiy-amaliy loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: Janubiy O‘zbekistondagi paleogen yotqiziqlarining geologik tuzilishi va shakllanishining litologik-fatsial sharoitlarini hamda ularning foydali qazilmalar bilan genetik bog‘liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tog' jinslarining tabiiy ochilmalaridan va burg'i quduqlardan olingan yangi geologik - geofizik ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

cho'kindi to'planishida fatsial, paleogeografik va paleoqlim omillarining rolini aniqlash;

cho'kindi hosil bo'lishining fatsial sharoitlarini o'zgarish ketma-ketligini aniqlash va fatsial birliklarini ajratish;

paleogen cho'kindi kesimining differentsiatsiyasini foydali qazilma konlarining shakllanishi bilan bog'liqligini o'rganish va ularning joylashish qonuniyatlarini aniqlash;

o'rganilayotgan hududdagi paleogen davri yotqiziqlari bilan bog'liq bo'lgan noma'dan foydali qazilmalarni bashoratlash va geologik-qidiruv ishlarining keyingi yo'nalishlarini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Janubiy O'zbekistonning paleogen yotqiziqlari olingan.

Tadqiqotning predmeti Janubiy O'zbekistonning paleogen cho'kindi formatsiyalarining geologik tuzilishi va cho'kindi to'planish sharoitlari hamda ular bilan bog'liq noma'dan foydali qazilmalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda an'anaviy litologik usullar (geologik marshrutlar, litologik kesmalar tuzish, namunalar olish, geologik kuzatuv nuqtalari) namunalarining geokimyoviy tahlillari ICP-MS usuli (induktiv bog'langan plazma bilan mass spektrometriya), dala va laboratoriya ishlari, litologik-fatsial kesmalar va xaritalar tuzish, strukturaviy-fatsial tahlil natijalaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'tkazilgan tadqiqotlar asosida Janubiy O'zbekistondagi paleogen yotqiziqlarini kesim va kengliklari bo'ylab bioritmik-stratigrafik bo'linishlari aniqlangan;

paleogen yotqiziqlarining cho'kindi to'planish sharoitlarini va moddiy tarkibini o'rganish asosida dinamik fatsial birliklari (urinma to'lqinlar, suv osti deltasi va suvosti dengiz oqimlari) ajratilgan;

tog' jinslarining asosiy litologik turlari, strukturaviy-teksturaviy belgilari va cho'kindi to'planishining fatsial sharoitlarini o'zgarishlar ketma-ketligida ularning asosiy omillari ilmiy asoslangan;

strukturaviy-tektonik, iqlimiy, geodinamik va gidrokimyoviy omillarning ta'siri natijasida cho'kindi moddaning biogen, kimyoviy va fizik-mexanik differentsiatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan noma'dan konlarning joylashish qonuniyatlari va ularning istiqbolli maydonlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Janubiy O'zbekiston paleogen yotqiziqlarining stratigrafik holati va o'zaro bog'liqligi vertikal va lateral bo'ylab ajratilgan.

urinma to'lqin zona uchun saralangan shag'al-qum, suvosti deltasi uchun esa – yomon differentsiallashgan qumli-alevrolitli-gilli cho'kindilar, markaziy-turg'un zonada – bentonitli gillar xarakterli va suvosti dengiz oqimlari yaxshi saralangan

kvars qumlari hamda donador fosforitlar shakllanishiga imkon yaratganligi asoslangan;

paleogen choʻkindi havzasini aks ettiradigan va foydali qazilma uyumlarini izlash uchun imkoniyat yaratadigan, paleotsen, erta eotsen, erta-oʻrta eotsen va oʻrta-kechki eotsen bosqichlaridan iborat, choʻkindi hosil boʻlishining toʻliq tugallangan sikli aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini taʼminlash maqsadida oʻrganilayotgan hudud boʻylab geologik-qidiruv ishlari davomida zamonaviy yuqori aniqlikdagi usullarni keng qoʻllash va olingan maʼlumotlarni (Janubiy Oʻzbekistonning deyarli butun hududi boʻylab paleogen yotqiziqlarini tabiiy ochilmalari boʻyicha 250 ta kuzatuv nuqtalari; mahalliy va tayanch litologik-stratigrafik kesmalar-1450 pog.m, qatlamning ochilgan joylaridan maʼdan namunalari olish-140 dona) statistik qayta ishlashda foydalangan holda Janubiy Oʻzbekistonning paleogen yotqiziqlaridagi nomaʼdan foydali qazilmalar uchun istiqbolli maydonlar ilmiy asoslanganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hududning geologik tuzilishini oʻziga xos xususiyatlari aniqlanganligi, choʻkindi toʻplanishning fatsial sharoitlarini oʻzgarish ketma-ketligi va ularning asosiy omillarini ajratilganligi, shuningdek, choʻkindi jinslarning defferensatsiyasini hamda foydali qazilmalarni shakllanishi bilan bogʻliqligini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, paleogen davrida choʻkindi toʻplanishining litologik-fatsial sharoitlarini, moddiy tarkibini, litologik turlarini oʻrganish asosida togʻ jinslarining strukturaviy-teksturaviy xususiyatlari aniqlandi va strukturaviy-tektonik, iqlimiy, geodinamik gidrokimyoviy omillarning taʼsiri bilan belgilangan hamda choʻkindi jinslarining biogen, kimyoviy va fizik-mexanik differensatsiyasi bilan bogʻliq boʻlgan nomaʼdan konlarini joylashish qonuniyatlarini aniqlash orqali qidirish va bashoratlash ishlarini samaradorligini oshirishi uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Janubiy Oʻzbekiston hududida tarqalgan paleogen davri yotqiziqlarining geologik tuzilishi va litologik-fatsial xususiyatlarini aniqlash boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

paleogen davri yotqiziqlari buxoro svitasi qatlamlarining karbonatli jinslarida foydali qazilmalarni toʻplanish sharoitlari va tarqalish xususiyatlari “Oʻzbek geologiya qidiruv” AJ Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasining amaliyotiga joriy qilingan (Oʻzbekiston Respublikasi Togʻ-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi 08-3956-sonli va “Oʻzbek geologiya qidiruv” AJning 2023-yil 22-dekabrdagi 01-14-1278-sonli maʼlumotnomalari). Natijada har bir hududning oʻziga xos litologik-fatsial xususiyatlari, dala geologiya qidiruv ishlarini olib borishga asos boʻlib xizmat qilgan;

tadqiqot olib borilgan uchastkalarining geologik tuzilishi, choʻkindi toʻplanishining litologik-fatsial sharoitlari va ular bilan bogʻliq foydali qazilmalar

turlarini o'rganish bo'yicha olingan natijalar "O'zbek geologiya qidiruv" AJ Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasining geologik-qidiruv ishlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi 08-3956-sonli va "O'zbek geologiya qidiruv" AJning 2023-yil 22-dekabrda 01-14-1278-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, paleogen davri yotqiziqlari bilan bog'liq foydali qazilmalarning istiqbolli maydonlarini ajratishga imkon bergan;

Janubiy O'zbekiston paleogen davri karbonatli-gipsli yotqizmalarining geologik tuzilishi, kimyoviy va moddiy tarkiblari, litologik-stratigrafik tarqalishi hamda litologik-fatsial hosil bo'lish sharoitlari "O'zbek geologiya qidiruv" AJ Hisor markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2024-yil 25-oktabrdagi 08-3956-sonli va "O'zbek geologiya qidiruv" AJning 2023-yil 22-dekabrda 01-14-1278-sonli ma'lumotnomalari). Natijada, paleogen davri yotqizmalar bilan bog'liq bo'lgan karbonat jinslaridan meyoriy talablarga javob beradigan yuqori sifatli qurilish xom ashyosini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 133 betni tashkil qilib, 25 ta rasm, 2 ta jadval va 7 ta ilovani o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlar dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalari bayon etilgan, tadqiqot obyekti predmeti belgilangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi havola qilinib, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Janubiy O'zbekiston paleogen yotqizmalarining o'rganilganligi va geologik tuzilishi**" nomli birinchi bobida, tadqiqot hududining geologik-geofizik o'rganilganligi, foydali qazilmalar bilan bog'liq bo'lgan bir qator hal etilmagan muammoli masalalari, litologik va stratigrafik tuzilishi, tektonikasi hamda hududdagi paleogen davri yotqizmalarining gidrogeologik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot maydoni haqida birinchi bo'lib, mezozoy-kaynozoy davrining stratigrafik tabaqalanish sxemasini ishlab chiqqan S.N.Mixaylovskiyning (1914) ishida eslatib o'tilgan. 1933-1934-yillarda

N.P.Lupov Bobotog' tizmasining markaziy qismida geologik tadqiqotlar olib borgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida hududlarning geologik xaritasi tuzilgan va S.N.Mixaylovskiyning stratigrafik sxemasiga ma'lum tuzatishlar kiritilgan. M.P.Baskakov (1946-1966) Janubiy O'zbekiston cho'kindilarining fosforit tarkiblarini o'rganar ekan, Yakkabog' tog'larining shimoliy yonbag'iridagi oloy cho'kindilarida fosfat moddasining konsentratsiyalarini aniqlagan. 1960-yilda N.L.Nikolayev boshchiligida o'tgan asrning 1930-1950-yillaridagi ishlar asosida O'zbekistonning noma'dan foydali qazilmalari to'g'risidagi ma'lumotnoma tuzildi. Ushbu ma'lumotnoma fosfatlarning namoyonlari Guliob, Qora-Dahana, Qushquduq, Kichik-Uradaryo havzasi, Shurasan haqidagi dastlabki ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. I.Y.Ilyashenkoning ma'lumotlariga ko'ra, Hisorning janubiy yonbag'irlari eng istiqbolli deb qabul qilingan.

O'rganilayotgan hududning geologik tuzilishlarida proterozoy va paleozoy (kembriy, toshko'mir va perm) metamorfik hosilalari, mezokaynozoy cho'kindi hosilalari (trias, yura, bo'r, paleogen, neogen va to'rtlamchi davrlar), nordon, o'rta, asos va ultrasos tarkibli intruziv komplekslar hamda liparit-datsit tarkibidagi subvulkanik jinslar (1-rasm) tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda Janubiy O'zbekistondagi paleogen yotqiziqlari, xususan, Hisor tizmasining janubiy g'arbiy etaklarida oqjar, buxoro, suzak, oloy, turkiston, rishton, isfara va xonobod qatlamlari ajratilgan (R.K.Minakova va b., 1975), ularni O'rta Osiyoning keng hududlarida litofatsial va paleontologik xususiyatlarining barqarorligi tufayli, R.K.Makarova gorizontlar darajasida ko'rib chiqadi.

Shu munosabat bilan, dissertatsiyada ular ham taklif qilgan sxema bo'yicha tavsiflanadi.


Oqjar gorizonti (paleotsen quyi qismi) - litologik jihatdan qumli ohaktoshlar, gilli brekchiyalar, qumtoshlar, gips-angidritlar va dolomitlashgan karbonat jinslari bilan ifodalanadi. Sariqamish, Sherobod, Boysun va boshqa hududlarda gips qatlamlari yo'qolib boradi.

Buxoro gorizonti (paleotsen, P^2_1 bh) faunaning tavsifli ko'rinishi bilan tayanch stratigrafik gorizont rolini o'ynaydi. Buxoro svitasining quyi qismi dolomitlar, dolomitlashgan ohaktoshlar va gipslarning qatlamlashib kelishlaridan tashkil topgan.

Suzak gorizonti (quyi eotsen, P^1_2 sz) quyi qismidan ohaksimon temir tugunlari bo'lgan yashil-kulrang gillari, gorizontning markaziy qismida yonuvchi slanets qatlamlari, kesimning yuqori qismlarida ustritsa qatlamchali gillar bilan ifodalangan.

Oloy gorizonti (o'rta eotsen, P^{2+1}_2 al) mos ravishda suzak qatlamining cho'kindilari ustiga yotadi. Gorizont asosda yotuvchi fosforitlar, qumtoshlar, alevrolitlar, gillar va ohaktoshlar, chig'anoqlardan tuzilgan.

Turkiston gorizonti (o'rta eotsen, P^{2+2}_2 tr) dengiz, yetakchi ravishda mergellar va kamroq ohaktoshlar qatlamlari bo'lgan, gilli jinslar yetarlicha qalin qatlamlari bilan tadqiq etilgan.



1-rasm. Tadqiqot hududining geologik xaritasi. Tuzuvchilar: (V.I.Belyayeva, 1987-yil), qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan Sh.Sh.Axmedov, 2022-yil

Rishton gorizonti (o'rta eotsen, P²⁺³₂ rsh) jigarrang-qizil rangli gillar qatlamchalarining borligi tufayli eotsenning gidromorf hosilalari orasida yaqqol ajralib turadi.

Isfara va xonobod gorizontlari (yuqori eotsen, P²⁺³₂ is-hn) mergel va ikkilamchi gipsning g'uralari bo'lgan kulrang gillarni birlashgan qalin monoton qatlamidan tarkib topgan, shuningdek, qumtoshlar, alevrolitlar va ohaktoshlarning qatlamchalari kuzatiladi.

Shunday qilib, paleogen yotqiziqlari Janubiy O'zbekistonda 600-800 m. bo'lgan katta qalinliklari, bo'limlarini aniq stratigrafiyalari bilan ajratiladi hamda organik qoldiqlar foramineferlar, ostrakodalar va ikki tabaqali mollyuskalar majmuasi tavsiflanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga qaramasdan, Janubiy O'zbekistonning cho'kindi yotqiziqlarining geologik tuzilish xususiyatlari va cho'kindi formatsiyasida cho'kindi to'planish sharoitlari hamda ularni foydali qazilmalar bilan bog'liq bo'lgan bir qator hal etilmagan muammolar mavjud.

Dissertatsiyaning "**Janubiy O'zbekistondagi paleogen jinslarining mineralogik assotsiatsiyasi va petrografik xususiyatlari**" nomli ikkinchi bobida, Dehqonobod, Oqko'l, Boysun, Kelif-Sherobod va Sherobod-Sariqamish tizmalari, Oqtov, Dasmonog'a, Xaudag, To'palang hamda to'liq bo'lmagan – Kosontov, Qo'ng'irtov, Maymanoqtov, Ugin, Shurasan, Toshguzar, Beshqiz, Pulhakim maydonlarida paleogenning turli fatsiyalaridagi yotqiziqlarining petrografik xususiyatlari o'rganildi.

Palogen kesimida bo'lakli jinslarning, deyarli, barcha petrografik turlari (konglomeratlar, brekchiyalar, gravelitlar, qumtoshlar, alevrolit), gillar, karbonatlar (dolomitlar, ohaktoshlar, chig'anoqlar, mergellar) va sulfatlar uchraydi (1-jadval).

Konglomeratlar, asosan, ko'p mayda qayroq toshchali, kulrang, polimiktili.

Qumtoshlar, asosan, kvarsli, dala shpatli-kvarsli, yaxshi saralangan, asosan, massiv teksturaga ega. Ularning hosil bo'lishlari chuqurlikdagi dengiz oqimlarini harakatlanishlari bilan bog'liq. Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy etaklarida suzak svitasi va Surxondaryo megasinklinalida oloy svitasi qatlamlarining kesimlarini tashkil etadi.

1-jadval

Janubiy O'zbekistondagi paleogen yotqiziqlarining petrografik turlari

Genetik guruh	Asosiy turlari	Moddiy tarkibi (asosiy jins hosil qiluvchi minerallar va bo'lakli jinslar)	Yoshi
Bo'lakli	Konglomeratlar Gravelitlar	Kvars, kvarsitsimon slanets, kremniyli slanets, ohaktoshlar, dolomit, mergel, granitoidlar, vulqon jinslari, qumli, loyli va gilli jinslar.	Eotsen, paleotsen
	Qumtoshlar Alevrolitlar	Kvars, dala shpati, slyuda, glaukonit, karbonatlar.	Eotsen, paleotsen
Bo'lakli-kimyoviy	Gillar	Gidroslyudalar, montmorillonit, beydellit; kaolinit va paligorskit ko'rinishdagi aralashmalar.	Eotsen

Kimyoviy	Karbonatlar	Kalsit, dolomit; pelitomorfli ohaktoshlar va dolomitlar, va oolitli: qumli-gilli mergellar.	Paleotsen, eotsen
	Sulfatlar	Gips, gipsli anidritlar.	Paleotsen
Organik	Organik qoldiqlari bilan karbonatlar	Rakushnyaklar-ohaktoshlar, makro va mikrofauna qo‘shilgan ohaktoshlar.	Paleotsen, eotsen
Organik-bo‘lakli	Karbonatlar	Ohaktoshlar: detritli, oolitli-bo‘lakli, qumli-alevrolitli faunasi bilan.	Eotsen

Bentonitsimon gillar Janubiy O‘zbekistonni erta eotsendagi suzak, o‘rta-kechki eotsendagi oloy, turkiston, kechki eotsenni rishton, isfara-xonobod svitalari kesimining asosiy qismini tashkil qiladi.


Karbonatli jinslar o‘rganilayotgan hududning, deyarli, barcha paleotsen va eotsen yaruslarida mavjud bo‘lib, mergel, dolomit va ohaktoshlar bilan ifodalanadi.

Mergellar tadqiqot hududlaridagi ko‘pgina maydonlarida suzak-oloy ritmik svitalari kesimlarining asosiy qismini tashkil etadi, ayniqsa, Dehqonobod uchastkasi kesimida aniq ajratiladi.

Dolomitlar Hisor tizmasi janubiy g‘arbiy etaklarining (Pachkamar, Dehqonobod, Oqko‘l), Sherobod-Kelif birliklari kesimida va Oqtov-Bobotog‘ tizmasi hududlaridagi buxoro ritmik svitasining ikkinchi va uchinchi ritmik pachkalarida keng tarqalgan. Ular orasida unsimon va pelitomorf turdoshlari ajratiladi. Buxoro ritmik svitasi dolomitlarining kimyoviy tahlillari shuni ko‘rsatadiki, qatlam sof dolomitlardan tashkil topgan, bu esa ularni dolomit mineralining kimyoviy tarkibi bilan qiyoslaganda monomineralliligini tasdiqlaydi (2-rasm).

Ohaktoshlar dolomitlarga nisbatan kamroq darajada rivojlangan. Ular juda turli-tuman va turli fatsial hamda ohaktoshlarning 3 ta genetik turlari ajratiladi: xemogen (yashirin kristallangan, oolitli), organogen va ikkilamchi o‘zgargan (dolomitlashgan, qayta kristallashgan).

Fosforitlar o‘rganilayotgan hududning oloy ritmik svitalar kesimida qumtoshlar, kelib chiqishi cho‘kindi bo‘lgan fosforitli gorizontlar mavjud, chig‘anoqlar qatlamlar orasida alohida qatlamlar va gorizontlar hosil qiladi. Fosfat donalari, kaprolitlar va oolitlar me‘yorda sho‘rlangan sayoz dengizda hosil bo‘lgan.



2-rasm. Dolomitning kimyoviy takibi diagrammasi

Sulfat jinslari gipslar bilan ifodalangan. Ularning qalinligi 0,1–0,3 metrdan 5 metrgacha (Talimarjon, Alyautdin maydoni) qatlamchalar va uyumli yotqiziq, shuningdek, g'urralar hamda yoriqlarni to'ldiruvchi ko'rinishida uchraydi. Qatlamli gips uyumlari oqjar va buxoro svitalarida qayd etilgan.

Gipsning pushti g'urra turi kuchli alevrolitlashgan qizil gillar oraliqlarida joylashgan. Xodjaulkan hududida buxoro svitasining dolomit-ohaktoshli gorizontida gipsning tolali turi qatlamchalarini hosil qiladi va turli yo'nalishlarda gorizontni kesib o'tadi (3-rasm).

Dissertatsiyaning “**Janubiy O'zbekistonda paleogen sedimentatsiya havzasini shakllanish xususiyatlari va geologik rivojlanish tarixi**” nomli uchunchi bobida, paleogen yotqiziqklarining geologik rivojlanish va paydo bo'lish sharoitlari tarixi o'rganilgan bo'lib, Janubiy O'zbekiston va unga tutash Afg'on-Tojik egikliklari hududlarining paleogen yotqiziqklari, asosan, dengiz sharoitida hosil bo'lgan cho'kindi to'plamlarning yagona majmuasini tashkil etadi.

Janubiy O'zbekistonni (O'rta Osiyoning sharqiy qismi kabi) rivojlanishning paleogen bosqichlari bir-biri bilan almashinuvchi bir qator bosqichlardan iborat bo'lib, ularning har biri bir qator cho'kindi to'planishlarning seriyasiga to'g'ri keladi.

Oqjar seriyasi (dat-zeland)-birinchi dengiz transgressiyasiga to'g'ri keladi, bu oqjar va buxoro svitalarining laguna (ko'rfaz) va sayoz dengiz yotqiziqklariga mos keladi.

Suzak-oloy seriyasi (tanet-ipr) transgressiyaning ikkinchi to'lqiniga to'g'ri keladi. Seriya Qoratog' transgressiv gorizontidan boshlanib, yonuvchi slanets gorizontidan tashkil topgan gilli bituminoz yotqiziqklarining to'planishlari bilan tavsiflanadi. Kesmani oloy svitasining quyi qismidagi gillar yakunlaydi.

Oloy-turkiston seriyasi (lyutet-barton), asosan, fosforitli karbonat qatlamlaridan boshlanib, turkiston, rishton va isfara svitalarining gillari bilan tugaydi. Ularda piroklastik moddalar juda ko'p.

Rishton seriyasi (barton) sayoz dengizning to'rtinchi transgressiya to'lqiniga to'g'ri keladi. Gilli yotqiziqklarning farqlanuvchi chizig'i bo'lib, ularning yuqori karbonat tarkibliklari hisoblanadi.

Isfara-xonobod seriyasi (barton-priabon) ham markaziy Hisor paleoko'tarilishigacha yetib borgan qisqa muddatli transgressiyani aks ettiradi.

O'rganilayotgan hududning paleogen yotqiziqklari O'rta Osiyoning sharqiy sxemasiga mansub bo'lishiga qaramay, Janubiy O'zbekistonning kesimi uncha katta bo'lmagan qalinliklarida dat yarusidan priabon yarusigacha (asrlar) uzoq masofalarda yaxshi fatsial barqarorliklari bilan ajralib turadi va paleotsen va eotsenga bo'linadi (oqjar, buxoro, suzak, turkiston, rishton va isfara-xonobod svitalari).

Paleotsen va eotsen yotqiziqklari o'zlarining xususiyatlariga ko'ra, foraminiferlar va nannoplanktonlar faunasini o'rganishlari natijasida ishonchli tabaqalashtirilgan.

Janubiy O'zbekistonning paleogen yotqiziqklarini litologik xususiyatlari va cho'kindi hosil bo'lishi ma'lum geologik va geokimyoviy sharoitlar

jamlanmasidan iborat. Ular orasida yetakchi bo'lib, geodinamik, tektonik, geomorfologik, iqlimiy, gidrodinamik va gidrokimyoviy sharoitlar hisoblanadi.

Janubiy O'zbekistonni paleogen cho'kindi havzasidagi cho'kindi fatsial tahlilining dinamik prinsipiga ko'ra, to'liq urilishi, suvosti deltağa xos, markaziy-turg'un fatsial belbog'lar va suvosti dengiz oqimlarining fatsial belbog'lari ajratildi.

To'liq urilishlari fatsiyasi belbog'i suv havzasining qirg'oq qismida, uning qirg'oqlariga parallel ravishda shakllangan hamda suv havzasining barcha uchastkasini egallab olgan, uning oraliqlarida to'liqlarning urilish harakatlari hukmronlik qilgan. To'liqlarni dinamikasi suv havzaning o'lchamlariga bog'liq. To'liq urilishlari belbog'i tadqiqot maydonidagi paleotsen va eotsenning kesimlarida rivojlangan. Paleotsen ko'rfaz havzasining qirg'oq qismida to'liq urilishi belbog'ining tor yo'laklari ajratiladi, u qumtoshlar va soy donador dolomitlardan tuzilgan (Dehqonobod maydonida ohaktoshlar ustuvorlikka ega). Uncha katta bo'lmagan orolchalarni taqdim etuvchi erta eotsen dengiz havzasining Surxondaryo qismi tubining notekisliklari va murakkab gidrodinamik rejimlari bilan tavsiflanadi, bu esa o'zgaruvchan qalinlikdagi terrigen yotqiziqlarining keng spektrini to'planishlariga yo'l qo'yadi, ular gravelitlar, qumtoshlar, alevrolitlar va gillar bilan taqdim etilgan.

Suvosti deltasi belbog'ining dinamikasi, barcha yuzadagi va suvosti turlaridagi oqimlar kabi bostirib kiruvchi tavsifga ega.

Markaziy cho'kindi fatsiyasi belbog'i nisbatan chuqur dengiz havzasining markaziy qismi bo'lib, gidrodinamikaning yo'qligi va muhitning turg'un ekologik sharoiti bilan tavsiflanadi. Markaziy cho'kindi fatsiyasi belbog'ining cho'kindilari butun Hisor tizmasining janubiy g'arbiy tarmoqlari va unga tegishli hududlardagi o'rta-kechki eotsen oloy-turkiston va kechki eotsen rishton-xonobod ritmik svitalari kesimlarida taraqqiy etgan.


Suvosti dengiz oqimlari suv havzalaridagi mustaqil, muntazam va doimiy bo'lgan chiziqli suv oqimlaridir. Ular suv havzasining atrofdagi suv massalaridan harakatlarining o'ziga xos sharoitlari bilan gidrodinamik xususiyatlanadi.

Gidrokimyoviy fatsiyalar suvli havzaning gidrokimyoviy tarkibini, oksidlovchi – qaytaruvchi va nordon-ishqoriy ko'rsatkichlari majmuasini nazarda tutadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, dinamik fatsiya birliklari orasida tuzuvchi materialning eng katta mexanik farqlanishi suvosti dengiz oqimlariga xosdir. Hisor tizmasining janubiy-g'arbiy etaklari va unga tutash hududlardagi erta-o'rta eotsenining qirg'oq bo'ylab suvosti oqimlari donador fosforitlarni sanoat gorizontlarini shakllantirishga qulay sharoitlar yaratadi.

Paleogen yotqiziqlarining geologik rivojlanish tarixi va shakllanish sharoitlari bo'r davrining oxiridan neogengacha bo'lgan davrda ko'rib chiqildi. Paleotsenda (buxoro svitasi) hududning cho'kishi hamda dengizning bostirib kirishlari sodir bo'ladi, pelitomorf dolomitlar va ohaktoshlar hosil bo'lgan, bu arid iqlim sharoitlarini ko'rsatadi. Erta eotsenda (suzak svitasi) cho'kish sharoitlari avvalgiday saqlanadi, gillar planktonlarni qirilib ketishlari tufayli organik

moddalar bilan boyiydi. Bu esa baxchisaroy vaqtining boshlanishiga va dengiz gillarining orasida yonuvchi slanets qatlamchalarning hosil bo'lishlariga olib kelgan.



3-rasm. Xodjaulkan maydoni paleogen kesmasi litogrammasi (Tuzuvchi: Sh.Sh.Axmedov, 2023-yil)

Shunday qilib, o'rganilayotgan hududdagi suzak svitasida yonuvchi slanetslarning mavjudligi mintaqaviy xarakterga ega, yirik tektonik tuzilmalarning qanotlarida joylashgan va antiklinal ko'tarilmalarning atrofida (yonida) uzun va

nisbatan tor chuqurliklarda yotqizilgan va bu Surxondaryo megasinklinaliga xosdir.

Dissertatsiyaning “**Janubiy O‘zbekistonning paleogen yotqiziqlari foydali qazilmalarini bashoratlash va tarqalish qonuniyatlari**” nomli to‘rtinchi bobida, paleogen yotqiziqlarining foydali qazilmalarini bashoratlashga bag‘ishlangan. Janubiy O‘zbekistonning paleogen yotqiziqlarida turli xil foydali qazilmalar, ayniqsa, uglevodorod va noma’dan xomashyo, shuningdek, qurilish materiallari keng tarqalgan. Dissertatsiya ishida paleogen yotqiziqlarining foydali qazilmalarini bashoratlashning asosiy omillarini aniqlashda asosiy e’tibor stratigrafik, fatsial va mineralogik-geokimyoviy mezonlarga qaratildi.

Aniqlangan noma’dan foydali qazilmalarning *stratigrafik joylashuvi* Qashqadaryo va Surxondaryo depressiyasi paleogen dengiz havzasi evolyutsiyaning yo‘naltirilgan iqlim o‘zgarishi, fatsial sharoitlari, cho‘kindi havzaning gidrodinamik va gidrokimyoviy rejimi o‘zgarishi hamda olib ketish manbalarining rolini qayta taqsimlashi bilan belgilanadigan bosqichliligi bilan bog‘liq.

Bashoratlashning fatsial omili mexanik differensiatsiyaga xos dinamik fatsial birliklarga asoslangan bo‘lib, bunda harakatning dinamikasi va davomiyligiga bog‘liq holda materialning saralanishi turlicha bo‘ladi. Materialning eng kam saralanishi kontinental va suvosti tarmoqli oqimlari uchun xarakterli. Materialning yomon saralanishi turli fatsiyalarning birgalikda cho‘kishi bilan bog‘liq. Kvars qumlari va donador fosforitlarni to‘plagan suvosti dengiz oqimini cho‘kindilari katta amaliy qiziqish uyg‘otadi. Qumlarning yuqori mexanik differensiatsiyasi va ularning strukturaviy yetilganligi (pishiqligi) ilgari boshqa dinamik fatsiya kamarlarida tayyorlangan materiallarning qayta saralanishi bilan bog‘liq.

Mineral-geokimyoviy bashoratlash mezonlari alohida olingan gidrodinamik va gidrokimyoviy fatsiyalarning ichki munosabatlariga kiradi. Fatsiyalarning tartibliligi mineral xomashyo sifatining yomonlashishiga va noyoblashishiga olib kelishi mumkin. Mineral tarkibining tozaligi va noma’dan xomashyoning sifati gidrokimyoviy va gidrodinamik fatsiyalarning tartibliligiga bog‘liq. Misol tariqasida, qo‘ltiq havzasining qirg‘oq qismida qirg‘oq to‘lqinlari ta’siri ostida qumli dolomitlarning, suvosti oqimlari to‘lqinlarining harakatlari ta’sirida qo‘shimcha ishlov berilishi bilan kvars qumlarining hosil bo‘lishiga, shuningdek, yumshoq karbonatli loyni yuvish orqali donador fosforit gorizontlarining shakllanishiga sabab bo‘lishini keltirish mumkin.

Foydali qazilmalarni bashoratlashning ilmiy asoslari stratigrafiyani, moddiy tarkibini, cho‘kindi to‘planishining fatsial sharoitlarini batafsil o‘rganishga, paleotektonik, paleotuzilma va paleoiqlim tiklash orqali paleogeografik landshaftni rekonstruksiya qilishga asoslangan. Ularning barchasi bashoratlash mezonlari hisoblanadi va birgalikda foydali qazilma konlarini joylashish qonuniyatlarini belgilaydi.

Foydali qazilma konlari bo‘yicha umumiy va mintaqaviy izlov ishlarini olib borishda mavjud talablarga muvofiq, mintaqaviy bashoratlashda foydali qazilmalarning ma’lum bir turlarining tarqalish qonuniyatlarini aniqlaydigan

O'rganilayotgan hududning paleogen yotqiziqlarida cho'kindi yo'l bilan hosil bo'lgan turli xil foydali qazilma konlari mavjud, shu jumladan: neft, gaz, tabiiy bitum, yonuvchi slanetslar, fosforitlar, bentonit gillari, kvarts qumlari, dolomitlar, selestin va ko'plab turdagi qurilish materiallar hisoblanadi.

Janubiy O'zbekistonni, xususan, Surxondaryo megasinklinalining chegarasida paleogenning oqjar va buxoro qatlamlari yotqiziqlarida joylashgan neftgaz konlari azaldan ma'lum (Amudaryo, Jalair, Jayronxona, Uchqizil, Xaudag, Mirshodi, Lalmikor, Oqtov, Kokayti, Koshtar, Janubiy Mirshadi, Dasmonog'a-Qarsaqli, Oqjarsoy konlari). Paleogen davridagi buxoro va oloy qatlamlari nefti barcha mahsuldor gorizontlarda bir xil tarkib va fizik xossalarga ega. Tuzilma-tektonik jihatdan Surxondaryo mintaqasining barcha neft konlari yirik, tor, chiziqli cho'zilgan antiklinallarda joylashgan.

Yonuvchi slanetslarni o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili yonuvchi slanetslarning chuqurligi 500 m dan oshmaydigan maydonlar amaliy qiziqish uyg'otishini aniqlashga imkon berdi. Boysun va Dehqonobod hududlarini istiqbolli namoyondalarga (4-rasm) kiritish mumkin, bu yerda batafsil baholash va zaxiralarni sanoat toifalari bo'yicha aniqlash kerak. Kelif-Sherobod va Bobotog' hududlarining shimoliy-g'arbiy qanotlarining namoyon bo'lishi istiqbolli hisoblanadi va ularning geologik-iqtisodiy ahamiyatini aniqlash uchun birinchi navbatda izlov ishlari tavsiya etiladi.

O'zbekiston janubidagi paleogen yotqiziqlarida fosforit ma'danlarining namoyon bo'lishi keng rivojlangan bo'lib, ular yer yuzasida ham va yopiq hududlar quduqlarda ham aniqlangan. Janubiy O'zbekiston hududida olib borilgan tadqiqotlar natijasida Oqtov, Dasmonog'a va To'palang maydonlarini fosforitlar uchun istiqbolli deb topish mumkin va ular kelajakda o'rganishga tavsiya etiladi.

Gilli minerallarining xilma-xilligi orasida xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlatiladigan bentonit va bentonitga o'xshash gillar katta ahamiyatga ega. Janubiy O'zbekistonning kaynozoy yotqiziqlari kesimlarida paleogen davrlari eotsen va quyi paleotsenning barcha bo'linmalarida nisbatan yuqori sifatli montmorillonit gillari ma'lum.

O'zbekiston janubidagi paleogen yotqiziqlarining foydali qazilmalarini o'rganishni umumlashtirib shuni ta'kidlash mumkinki, aniqlangan ochilmalar va konlarni kelib chiqishi va shakllanish sharoitlariga ko'ra, fatsiya birliklarining almashinishi, paleotektonik, paleogeografik va paleoiklim muhitlarning ma'lum bir o'zgarish qonuniyatlariga bo'ysunadi, bu noma'dan va uglevodorod xomashyosining istiqbolli maydonlarini bashoratlash uchun ma'lum shart-sharoitlarni ta'minlaydi va shu bilan respublikamizning mineral-xomashyo bazasini ko'paytirishga imkoniyat yaratadi.

XULOSA

Tadqiqotning umumiy natijalari bo'yicha nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Janubiy O'zbekiston paleogen cho'kindi-sedimentatsion havzasi 4 ta bosqichdan iborat: paleotsen, quyi eotsen, quyi-o'rta eotsen va o'rta-yuqori eotsen

choʻkindilarini hosil boʻlish jarayoni toʻliq siklida shakllangan. Ularning har biri aniq ritmik birligi (ritmosvita) fatsial sharoitga mos ravishda geologik kesmalarda biri-biridan farq qiluvchi alohida yotqiziqli jinslar ajratilgan.

2. Paleogen havzasi litologik-fatsial sharoitlari boʻyicha gidrodinamik va gidrokimyoviy fatsial birliklarga ajraladi. Gidrodinamik fatsial birligi asosiy tashib keluvchi omil va choʻkmaga oʻtishi, dinamik muhitda kechganligidan kelib chiqib, urinma toʻlqin, suvosti deltasi, markaziy turgʻun va dengiz suvosti oqimi fatsial belbogʻlari ajratildi.

3. Dengiz suvlarining kalsiy gidrokarbonat bilan boyiganligi va organik dunyoning rivojlanishiga ijobiy taʼsir koʻrsatishi uchun suv havzasining gidrokimyoviy tarkibini, oksidlanish-qaytarilish va nordon-ishqorli koʻrsatkichlarini belgilaydigan kompleks sharoitlarni nazarda tutgan holda, choʻkindi moddalarni differensiatsiyalanishi kimyoviy sulfat-dolomitli, biokimyoviy karbonatli va fizik-kimyoviy bentonitli fatsiyalari ajratildi.

4. Oʻrganilayotgan hududning geologik rivojlanish tarixi va paleogen yotqiziqklarining hosil boʻlish sharoitlari paleotsenda hududni choʻkishi va dengizning kirib kelishi arid iqlim bilan bogʻliq gips, dolomit va ohaktoshlar, quyi eotsenda selestinni shakllanishiga sedimentatsion havzaning yaratgan qisqa muddatli koʻrfaz mavjudligi, quyi-oʻrta eotsenning oxirida pelitli materialning kiritilishi hisobiga karbonatli gillar va mergellar yotqizilishi, oʻrta-yuqori eotsenda havza yanada chuqurlashishi natijasida asta-sekin gillar bilan almashinishi kuzatiladi.

5. Tadqiqotlar natijasida bir qancha paleogen davri yotqiziqklariga xos boʻlgan: dolomit, ohaktosh, kvarts qumlari, bentonit gillari, fosforit hamda yonuvchi slanetslarni istiqbolli maydonlari ajratildi va kelajakda xorijiy investorlarning mablagʻlarini jalb qilgan holda istiqbolli maydonlar uchun geologiya-qidiruv ishlarini olib borishga ilmiy asosnomalar tayyorlandi.

6. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida Qashqadaryo viloyati Qoʻngʻirtov va Kosontov uchastkalarida dolomit va oxaktoshlar, Surxondaryo viloyati Akkapchigay, Akbulakgaza, Talxab, Kengata, Koksay uchastkalaridagi sulfat sinfiga mansub selestin minerallarini izlash va baholash ishlarini olib borish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.24/30.10.2020.GM/125.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ГЕОЛОГИИ И
ГЕОФИЗИКИ ИМЕНИ Х.М.АБДУЛЛАЕВА**

**НАВОИЙСКОЕ ОТДЕЛЕНИЕ АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

АХМЕДОВ ШОВДУЛЛО ШУХРАТОВИЧ

**ГЕЛОГИЯ, ЛИТОЛОГО-ФАЦИАЛЬНЫЕ УСЛОВИЯ
ФОРМИРОВАНИЯ ПАЛЕОГЕНОВЫХ ОТЛОЖЕНИЙ ЮЖНОГО
УЗБЕКИСТАНА И ИХ СВЯЗЬ С ПОЛЕЗНЫМИ ИСКОПАЕМЫМИ**

04.00.01 – «Общая и региональная геология»

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD)
ПО ГЕОЛОГО-МИНЕРАЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент-2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистана под номером B2023.4.PhD/GM201.

Диссертация выполнена в Навоийском отделении Академии наук Республики Узбекистан.
Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного Совета www.ingeo.uz и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: Мирзаев Абдуразак Умирзакович
доктор геолого-минералогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Разиков Одил Тахирджанович
доктор геолого-минералогических наук

Шоймуротов Гуйчи Халикулович
доктор геолого-минералогических наук

Ведущая организация: ГУ «Регионалгеология»

Защита диссертации состоится «24» декабря 2024 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.24/30.10.2020.GM.125.01 при Институте геологии и геофизики имени Х.М.Абдуллаева (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Олимлар, 64г. Тел.: (99871) 209-11-32; (5505); E-XAT: ingeo@exat.uz; (E-mail: ingeo@ingeo.uz))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института геологии и геофизики имени Х.М.Абдуллаева (регистрационный номер №22). Адрес: 100164, г.Ташкент, ул. Олимлар, 64г. Тел.: (99871) 209-11-32 (5505).

Автореферат диссертации разослан «6» декабря 2024 г.
(реестр протокола рассылки № 22 от «6» декабря 2024 г).



Х.Д.Ишбаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.г.-м.н., профессор

Э.М.Амиров
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.ф.г.-м.н.(PhD)

П.С.Султонов
Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученых степеней, д.г.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой практике становится важным разработка научной основы организации геологоразведочных работ, в том числе, изучение осадочных пород в отдельных площадях является важнейшей задачей с целью поиска и оценки месторождений нерудных полезных ископаемых. В связи с этим в развитых странах выявление подобных типов полезных ископаемых, направленное на обеспечение стабильного прироста минерально-сырьевой базы за счет внедрения современных методов поиска нерудных полезных ископаемых, расположенных в различных стратиграфических комплексах, служит важным источником информации при решении ряда задач.

В мировом масштабе сегодняшний день проводится ряд целенаправленных исследовательских работ по изучению литолого-фациальных условий нерудных месторождений полезных ископаемых, связанных с формированием осадочных отложений. В частности, особое внимание уделяется разработке научно обоснованных критериев прогнозирования путем определения литолого-фациальных свойств осадочных образований и их вещественного состава в разрезе различных фациальных комплексов, изучения агроминерального сырья, строительных материалов и месторождений горючих полезных ископаемых, которые входят в состав нерудных месторождений.

Для расширения минерально-сырьевой базы нашей республики реализуются комплексные меры по освоению нерудных полезных ископаемых. В частности, на территории Южного Узбекистана достигнуты определенные научные результаты по определению вещественного состава палеогеновых отложений с использованием литологических, фациально-палеогеографических методов. Новая стратегия развития Узбекистана для дальнейшего развития Республики Узбекистан определяет задачи “Дальнейшего развития, совершенствования, ускорения отрасли”². В связи с этим важное значение имеют провести научные исследования по изучению условия формирования отложений палеогенового периода на юге Узбекистана.

Результаты данного диссертационного исследования в определенной степени служат выполнению задач, предусмотренных в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 1 марта 2018 года ПП-3578 “О мерах по коренному совершенствованию деятельности Государственного комитета геологии и минеральных ресурсов Республики Узбекистан”, Постановлении Президента Республики Узбекистан от 23 июля 2019 ПП-4401 – “О мерах по дальнейшему совершенствованию геологического изучения земной коры и реализации государственной программы развития и воспроизведение минерально-сырьевой базы на 2020-2021 года”, в Указе Президента

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 г. № УП-60 “О стратегии развития Нового Узбекистана”.

Республики Узбекистан от 28 января 2022 года УП-60 “О Новой Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы” части III «Кардинальное увеличение объемов геологоразведочных работ, широкое привлечение в сферу частных инвесторов и передовых зарубежных компаний», а также обеспечения выполнения приказа Администрации Президента Республики Узбекистан от 15 марта 2022 года 04-593 пункт 1, протокола заседания состоявшегося в Университете геологических наук 3 марта 2022 года, в Обращении Президента Республики Узбекистан к Олий Мажлису, а также других нормативно-правовых документов, связанных с этой деятельностью.

